«Агрокимё, тупроқшунослик ва ўсимликларни ҳимоя қилиш»
кафедрасининг 20 - сонли мажлис

**Б А Ё Н И Д А Н   К Ў Ч И Р М А**

«12» май 2015 йил — Самарканд шаҳри

*Қатнашдилар:* Ф.Ҳошимов – кафедра мудири, профессор, П.Узоков – кафедра профессори, М.Ҳайитов – кафедра доценти, Б.Абдуллаев - кафедра доценти, Т.Ортиков - кафедра доценти, Э. Умурзоков - қ.х.ф.доктори, С.Ахмедов - кафедра катта ўқитувчиси, О.Назаров – кафедра катта ўқитувчиси, М.Машрабов - кафедра ассистенти, А.Салинов - кафедра ассистенти, Ш.Ҳазратқулов - кафедра ассистенти, А. Худойқулов- кафедра ассистенти, О. Пўлатов - кафедра ассистенти, Л.Сонамян - кафедра лаборанти, М. Ғуломова- кафедра лаборанти, ҳамда кундузги бўлимнинг кафедрада малакавий битирув иши бажарган 57 нафар талабаси.

*Кун тартиби:*

Кундузги бўлим битирувчиси Холиқов Мухсин Ҳасан ўғлининг «Тамаки трипси *(Thrips tabaci Lind)*нинг ривожланиш фенологияси ва унга қарши кимёвий усулда кураш самарадорлиги» мавзусидаги малакавий битирув иши муҳокамаси.

*Сўзга чиқди:*

Кафедра мудири, профессор Ф.Ҳошимов Ўзбекистон Республикаси ОЎМТВ нинг 9.06.2010 йил 225 сонли буйруғи билан тасдиқланган «Олий ўқув юртлари бакалаврларининг малакавий битирув иши» тўғрисидаги низомига асосан ҳар бир малакавий битирув иши кафедрада муҳокама қилингандан кейин ДАК ҳимоясига тавсия етилиши кераклигини айтиб ўтди. Кафедрамизда кундузги бўлим битирувчиси Холиқов Мухсин Ҳасан ўғлининг «Тамаки трипси *(Thrips tabaci Lind)*нинг ривожланиш фенологияси ва унга қарши кимёвий усулда кураш самарадорлиги» мавзусидаги малакавий битирув иши муҳокамасини эшитамиз.

Шундан сўнг Холиқов Мухсин Ҳасан ўғли ўз малакавий битирув иши мавзусини долзарблигини, аҳамиятини, илмий янгилигини, олинган натижаларни ва қилинган хулосаларни маъруза қилди.

Маърузачига мавзу юзасидан 4 та савол берилди, у берилган саволларга жавоб берди.

Муҳокамада Ф.Ҳошимов, П. Узоков, Т. Ортиков, С. Ахмедов ва Б. Абдуллаевлар иштирок этдилар.

***ҚАРОР ҚИЛИНДИ:***

Кундузги бўлим битирувчиси Холиқов Мухсин Ҳасан ўғлининг «Тамаки трипси *(Thrips tabaci Lind)*нинг ривожланиш фенологияси ва унга қарши кимёвий усулда кураш самарадорлиги» мавзусидаги малакавий битирув иши барча кўрсаткичлари бўйича ДАК талабларига жавоб бериши инобатга олиниб, у ДАК да ҳимоя қилиш учун тавсия этилсин.

**Мажлис раиси, профессор** — **Ф.Ҳошимов**

**Котиба** — **М.Ғуломова**



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

Agronomiya fakulteti. Agrokimyo, tuproqshunoslik va o'simliklarni himoya qilish kafedrasi «5410300 – O'simliklar himoyasi va karantini» ta'lim yo'nalishi bakalavriat bitiruvchisi

**Xoliqov Muhsin Hasan o'g'liningning**

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: "Tamaki tripsi *(Thrips tabaci Lind)*ning rivojlanish fenologiyasi va unga qarshi kimyoviy usulda kurash samaradorligi"**

Ilmiy rahbar: professor E.U.Umurzoqov

Malakaviy bitiruv ishi Agrokimyo, tuproqshunoslik va o'simliklarni himoya qilish kafedrasi yig'ilishida muhokama qilindi va DAK himoyasiga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri, professor
_____________ F.H.Xoshimov
"12" May 2015 yil
Bayonnoma №20

Agronomiya fakulteti dekani,
dotsent D.S.Normurodov
"2" VI 2015 yil

*Samarqand – 2015*



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

# САМАРҚАНД ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ИНСТИТУТИ

Факултет *Агрономия*

Таълим йўналиши *5410300 – Ўсимликлар ҳимояси ва карантини*
(коди, тўлик номи)

Кафедра: *Агрокимё, тупроқшунослик ва ўсимликларни ҳимоя қилиш*

**"ТАСДИҚЛАЙМАН"**
Ўқув ишлари бўйича биринчи
проректор ________
(имзо, муҳр)
"30" 08 2014 йил

## МАЛАКАВИЙ БИТИРУВ ИШ БЎЙИЧА ТОПШИРИҚ ВАРАҚАСИ

1. Ижрочи Хомидов Муҳсин Ҳасан ўғли
(Ф.И.Ш.)

2. Мавзу: Тамаки трипси (Thrips tabaci Lind) нинг ривожланиш фенологияси ва унга қарши кимёвий усулда кураш самарадорлиги

Мавзу институт Илмий кенгашининг "30" август 2014 йилдаги 1 сонли карори билан тасдиқланган

3. Мавзунинг долзарблиги, назарий ва амалий (иктисодий, ижтимоий, экологик илмий-техник, меҳнат муҳофазаси, ҳаёт хавфсизлиги ва ҳ.к.) аҳамияти

Тамакичиликда тамаки трипси ху-сусан 30-40% гача ҳосил йўқотилиш билан ҳосилнинг сифати [illegible] пасайишига сабабчи бўлади. Шуни инобатга олиб тамаки трипсига қарши янги кимёвий воситалардан фойдаланиб, уларнинг самарадорлигини аниқлаш тамакичилик республикамизни [illegible] муҳим аҳамиятга эгадир.

4. Малакавий битирув ишини бажариш учун тавсия қилинадиган илмий, ўқув-услубий ва бошка ахборот манбалари (дарслик, ўкув қўлланмалари, маърузалар курси, монография, илмий мақолалар ва ҳ.к.)

1. Абдурахмонов А., Умурзоқов Э. Тамакичилик. Т.1985й.
2. [illegible] трипс. [illegible]
3. Кимсанбоев Х. ва бошқ. Ўсимликларни кимё-
4. вий ҳимояси [illegible]. Т.1995й.
5. Ахатова Н. Ўсимликшунослик. Т.2006й.
6. Хўжаев Ш. Умумий ва қишлоқ хўжалик энтомологияси
7. ва агротоксикология асослари. Т.2013й.
8. www: entomology.com
9. www: [illegible]
10. www: [illegible]



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

5. Малакавий битирув иши бўйича маълумотлар тўплаш, ҳамда тадқиқот ишлари олиб бориш манбалари ва жойлари (ўқув зали ва хоналари, Ахборот Ресурс Маркази, лабораториялар, ташкилот, корхона, илмий ёки таълим муассасаси)

Ўсимликларни биокимё илмий маркази маълумотлари, институт АРМи, ўқув зали, кафедра ва ЎзБАТ лабораториялари, ЎзБАТ маълумотлари, интернет сайтлари

**6. Малакавий битирув ишини тайёрлаш бўйича амалга ошириладиган ишлар режаси**

| № | Ишнинг мазмуни | Тахминий ҳажми (бет) | Ижро муддати | Изох |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Масаланинг қўйилиши. Мавзунинг долзарблиги, ечилиши ёки ўрганилиши лозим бўлган масаланинг моҳияти ва мақсадини ёритиб бериш (кириш қисми) | 6-8 | январ | |
| 2 | Мавзу бўйича маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилиш (ёрдамчи мулоҳаза ва фактлар) | 10-15 | феврал | |
| 3 | Олиб борилган тажрибалар, тадқиқот ишлари, натижаларни таҳлил қилиш ва тартибга солиш (параграф, боб, бўлим ёки қисмлар бўйича) | 10-15 | март | |
| 4 | Олинган тажрибаларнинг назарий ва амалий аҳамияти бўйича хулоса бериш ҳамда тадбиқ соҳалари ва усулларига оид таклифлар тайёрлаш | 10-15 | апрел | |
| 5 | Битирув ишини расмийлаштириш ва унинг ҳимояси учун зарурий кўргазмали воситаларни (жадваллар, расмлар, графиклар, диаграмма, макет, стенд ва ҳ.к.) тайёрлаш | 8-10 | май | |
| 6 | Дастлабки ҳимояга тайёргарлик кўриш ва ҳимояга чиқиш матнини тайёрлаш | 5-7 | май. | |
| 7 | Битирув иши бўйича қўшимча маслаҳатчилар | | | |

**Илмий раҳбар**

**Кафедра мудири**



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚИШЛОҚ ВА СУВ ХЎЖАЛИГИ ВАЗИРЛИГИ**

**САМАРҚАНД ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ИНСТИТУТИ**

***«Агрокимё, тупроқшунослик ва ўсимликларни ҳимоя қилиш» кафедраси***
***5410300 – Ўсимликлар ҳимояси ва карантини таълим йўналиши бакалавриат битирувчиси***

# ХОЛИҚОВ МУҲСИН ҲАСАН ЎҒЛИНИНГ

## *МАЛАКАВИЙ БИТИРУВ ИШИ*

## Тамаки трипси *(Thrips tabaci Lind)*нинг ривожланиш фенологияси ва унга қарши кимёвий усулда кураш самарадорлиги



***Илмий раҳбар, профессор______________Э.У.Умурзоқов***

***Малакавий битирув иши Агрокимё, тупроқшунослик ва ўсимликларни ҳимоя қилиш кафедраси йиғилиши-да муҳокама қилинди ва ДАК ҳимоя-сига тавсия этилди. Кафедра мудири, профессор____________Ф.Ҳ.Ҳошимов***
***«___»______________2015 йил***
***Баённома №___________***

***Агрономия факултети декани, доцент***
***___________Д.С.Нормуродов***
***«___»____________2015 й***

***САМАРҚАНД-2015***



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

«Агрокимё, тупроқшунослик ва ўсимликларни ҳимоя қилиш»
кафедрасининг ____ - сонли мажлис

**Б А Ё Н И Д А Н К Ў Ч И Р М А**

«__»_май_ 2015 йил Самарқанд шаҳри

*Қатнашдилар:* Ф.Ҳошимов – кафедра мудири, профессор, П.Узоқов – кафедра профессори, М.Ҳайитов – кафедра доценти, Б.Абдуллаев - кафедра досенти, Т.Ортиқов - кафедра досенти, Э. Умурзоқов - қ.х.ф.доктори, С.Аҳмедов - кафедра катта ўқитувчиси, О.Назаров – кафедра катта ўқитувчиси, М.Машрабов - кафедра ассистенти, А.Садинов - кафедра ассистенти, Ш.Ҳазратқулов - кафедра ассистенти, А. Худойқулов- кафедра ассистенти, О. Пўлатов - кафедра ассистенти, Л.Сонамян - кафедра лаборанти, М. Ғуломова- кафедра лаборанти, ҳамда кундузги бўлимнинг кафедрада малакавий битирув иши бажарган 57 нафар талабаси.

*Кун тартиби:*

Кундузги бўлим битирувчиси Холиқов Муҳсин Ҳасан ўғлининг «Тамаки трипси *(Thrips tabaci Lind)*нинг ривожланиш фенологияси ва унга қарши кимёвий усулда кураш самарадорлиги» мавзусидаги малакавий битирув иши муҳокамаси.

*Сўзга чиқди:*

Кафедра мудири, профессор Ф.Ҳошимов Ўзбекистон Республикаси ОЎМТВ нинг 9.06.2010 йил 225 сонли буйруғи билан тасдиқланган «Олий ўқув юртлари бакалаврларининг малакавий битирув иши» тўғрисидаги низомига асосан ҳар бир малакавий битирув иши кафедрада муҳокама қилингандан кейин ДАК ҳимоясига тавсия етилиши кераклигини айтиб ўтди. Кафедрамизда кундузги бўлим битирувчиси Холиқов Муҳсин Ҳасан ўғлининг «Тамаки трипси *(Thrips tabaci Lind)*нинг ривожланиш фенологияси ва унга қарши кимёвий усулда кураш самарадорлиги» мавзусидаги малакавий битирув иши муҳокамасини эшитамиз.

Шундан сўнг Холиқов Муҳсин Ҳасан ўғли ўз малакавий битирув иши мавзусини долзарблигини, аҳамиятини, илмий янгилигини, олинган натижаларни ва қилинган хулосаларни маърузa қилди.

Маърузачига мавзу юзасидан 4 та савол берилди, у берилган саволларга жавоб берди.

Муҳокамада Ф.Ҳошимов, П. Узоқов, Т. Ортиқов, С. Аҳмедов ва Б. Абдуллаевлар иштирок этдилар.

***ҚАРОР ҚИЛИНДИ:***

Кундузги бўлим битирувчиси Холиқов Муҳсин Ҳасан ўғлининг «Тамаки трипси *(Thrips tabaci Lind)*нинг ривожланиш фенологияси ва унга қарши кимёвий усулда кураш самарадорлиги» мавзусидаги малакавий битирув иши барча кўрсаткичлари бўйича ДАК талабларига жавоб бериши инобатга олиниб, у ДАК да ҳимоя қилиш учун тавсия этилсин.

**Мажлис раиси, профессор** **Ф.Ҳошимов**

**Котиба** **М.Ғуломова**



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com





PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

# Mundarija

KIRISh............................................................................................

I.Adabiyotlar sharhi ...........................................................................

II. Tamaki yetishtirish texnologiyasi .....................................................

2.1. Dalani ko'chat o'tqazishga tayyorlash ..........................................

2.2. Ko'chat o'tqazish .....................................................................

2.3. Qator oralarini ishlash ...............................................................

2.4. Sug'orish tizimi ........................................................................

2.5. O'g'itlash ..................................................................................

2.6. Barglarni yig'ish va quritish.......................................................

III. Tajriba o'tkazish sharoiti va uslublari ....................................

3.1. Iqlimi ......................................................................................

3.2. Tuproqlari .................................................................................

3.3 Tajriba obyektlari va uslublari ...............................................

IV. Tadqiqot natijalari ...................................................................

4.1. Tamakida tamaki tripsini rivojlanish dinamikasi...............

4.2. Tamaki tripsiga qarshi insektisidlar qo'llashning biologik (texnik) samaradorligi.....................................................................

4.3. Tamaki tripsiga qarshi insektisidlar qo'llashning hosildorlikka ta'siri ...........................................................................

4.4. Hosil sifati.................................................................................

V. Tamaki tripsiga qarshi kurashishda iqtisodiy samaradorligi ....

VI. HAYoT FAOLIYaTI XAVFSIZLIGI VA EKOLOGIK MUAMMOLAR……………………………………………….

Xulosa va takliflar .........................................................................

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ................................................

Ilova (Internet ma'lumotlari)......................................................



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

# KIRISH

Respublikamizda tamakichilikni rivojlantirishning asosiy yo’nalishlaridan biri yetishtirilayotgan tamaki xom ashyosini dunyo tamaki bozorida raqobatbardoshligini oshirish, bunda o’zini munosib o’rnini egallash bilan birga respublikamiz tamakichiligini ravnaqini ta’minlashga qaratilgan. Bu boradagi asosiy yo’nalishlardan biri respublikamizning tog’ va tog’ oldi hududlardagi unumdorligi past bo’lgan va sug’orish imkoniyati cheklangan maydonlarda istiqbolli navlarni joriy qilish, tuproq tabiiy namligidan foydalanish hisobiga, kasallik va zararkunandalarga qarshi uygunlashgan kurash usullarini qo’llab yuqori va sifatli tamaki xom ashyosini yetishtirib bu hududda dehqonchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 15-noyabrdagi 496-sonli «Tamaki sanoatini rivojlantirishning qo’shimcha chora tadbirlari to’g’risida» gi qarori qabul qilindi Bu qarorda tamakichilikning yanada rivojlantirish uchun yaratilgan yangi navlarni ishlab chiqarishga joriy etish, uni kasalliklari, zararkunandalari va begona o’tlariga qarshi uygunlashgan usulda kurashib hosildorlik va hosil sifatini yuqori bo’lishini ta’minlashga alohida e’tibor berilgan.

Tamaki xom ashyosini sifatini belgilovchi asosiy omillirdan biri uni turli xildagi so’ruvchi zararkunandalardan himoya qilish bo’lib hisoblanadi.

Tamaki zararkunandalar va kasalliklar bilan qattiq zararlanadigan o’simliklar guruhiga kiradi; uni bir qator so’ruvchi zararkunandalar zararlaydiki ularga o’z vaqtida qarshi kurash chorasi qo’llanilmasa hosilni 50-60% yo’qotiladi, olingan hosilni ham sifati umuman talabga javob bermaydi.

Tamakida bir necha turdagi shiralar (o’simlik bitlari) zarar keltiradi ularning ichidan eng asosiylari beda yoki akasiya biti, poliz biti, katta g’o’za bitlari bo’lib, ayniqsa keyingi yillarda ularning rivojlanish dinamikasi ancha o’zgardi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

O’simliklarni himoya qilish tadbirlarini unumli va samarali amalga oshirish tamaki hosilini zararkunanda va kasalliklardan saqlashning asosiy omillaridan biridir.

Endilikda o’simliklarni zararkunanda va kasalliklardan umumiy himoya qilish tizimi ham tubdan o’zgarmoqda. Bunda diqqat e’tibor tabiatdagi foydali hasharotlarga qaratilmoqda Ular respublikamizdagi 813 ta biofabrika va biolaboratoriyalarda kupaytirilmoqda.

Respublikamiz tamakichiligini rivojlantirishning asosiy yo’nalishlaridan biri yetishtirilayotgan tamaki xom ashyosini dunyo tamaki bozorida raqobatbardoshliligini oshirish, bunda o’zini munosib o’rnini egallash bilan barcha respublikamiz tamakichiligini ravnaqini ta’minlashga qaratilgan. Bu boradagi asosiy yo’nalishlardan biri respublikamizning tog’ va tog’ oldi hududlaridagi unumdorligi past bo’lgan va sug’orish imkoniyati cheklangan maydonlarda istiqbolli navlarni joriy qilish tuproq tabiiy namligidan foydalanish hisobiga kasallik va zararkunandalariga qarshi uygunlashgan kurash usullari qo’llab yuqori va sifatli tamaki xom ashyosini yetishtirib, bu hududda dehqonchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 15 noyabrdagi 496-sonli «Tamaki sanoatini rivojlantirishning qo’shimcha chora Tadbirlari to’g’risida» gi qarori qabul qilindi. Bu qarorda tamakichilikni yanada rivojlantirish uchun yaratilgan yangi navlarni ishlab chiqarishga joriy etish, uni kasalliklari, zararkunandalari va begona o’tlariga qarshi uyg’unlashgan usulda kurashib hosildorlik va hosil sifatini yuqori bo’lishini ta’minlashga alohida e’tibor berilgan. Tamaki xom ashyosini sifatini belgilovchi asosiy omillaridan biri uni turli xildagi so’ruvchi zararkunandalardan himoya qilish bo’lib hisoblanadi.

Tamaki zararkunandalar va kasalliklar bilan qatiq zararlanadigan o’simliklar guruhiga kiradi. Uni bir qator so’ruvchi zararkunandalar zararlaydiki, ularga o’z vaqtida qarshi kurar chorasi qo’llanilmasa, hosilni 50-60% yo’qotiladi, olingan hosilni ham sifati umuman talabga javob bermaydi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Tamakida bir necha turdagi shiralar (o'simlik bitlari) zarar keltiradi. Ularni ichidan eng asosiylari beda yoki akasiya biti, poliz biti, katta g'o'za bitlari ayniqsa keyingi yillarda rivojlanish dinamikasi ancha o'zgaradi. O'simliklarni himoya qilish tadbirlarini unumli va samarali amalga oshirish tamaki hosilini zararkunanda va kasalliklardan saqlashning asosiy omillaridan biridir.

Endilikda o'simliklarni zararkunandalardan umumiy himoya qilish tizimi ham tubdan o'zgarmoqda. Bunda diqqat e'tibor, tabiatdagi foydali hasharotlarga qaratilmoqda, Ular Respublikamizdagi 813 ta biofabrika va biolaboratoriyalarda ko'paytirilmoqda. Ko'p yillar davomida zararkunandalarga surunkasiga qo'llanilgan kimyoviy kurash vositalari tabiatdagi turlar o'rtasidagi muvazanatni buzilishiga sabab bo'ldi va uni ifloslanishiga olib kelmoqda.

Hozirgi vaqtda zararkunandalarga qarshi kurashda uyg'unlashgan himoya usuliga katta e'tibor berilmoqda va ko'pgina xo'jaliklarda keng ko'lamda qo'llanilmoqda, ushbu kurash usuli keng ma'noga ega bo'lib barcha kurash vositalarini kerakli vaqtda navbatlab, zararkunandalarni iqtisodiy zarar keltirish chegarasini inobatga olgan holda tabiatdagi foydali hasharotlar ko'payishiga va o'simlikning sog'lom rivojlanishiga qulay sharoit yaratishdan iborat.

Ko'pchilik olimlarning fikricha qo'llaniladigan har qanday kurash vositalarini qo'llaganda ularni to'liq yo'qotishni o'ylamasdan balki ularning sonini kamaytirib turishga erishish lozimdir. Chunki biz zararkunandalarni ularni tabiiy kushandalari ham yo'qolib ketadi. Natijada tabiiy biosenoz buziladi. Shu narsani alohida qayd etish kerakki, Ona tabiatning o'zi ham evolyusion taraqqiyot davomida boshqa mavjudotlar singari hasharotlar olamida ham ma'lum muvazanatni saqlaydi.

Tamaki agrobiosenozida 300 dan ortiq turdagi hasharotlar uchraydi, shulardan 8-10% hasharotlar hosilga jiddiy zarar yetkazadi, qolgan turlar esa hasharotlarga qirg'in keltirib, faqat ular hisobiga yashaydi. (Jumanov 1989).

Ana shularni inobatga olib malakaviy bitiruv ishimizda tamakida uchraydigan tamaki tripsini rivojlanishi va zararini o'rganib, ularga qarshi



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

kurash yo’llarini samaradorligini aniqlashni o’z oldimizga asosiy maqsad qilib oldik bunda biz quyidagi masalalarni o’rgandik:

1. Tripslarni rivojlanishni hisobga olish
2. Tamaki tripsini zararlilik darajasini hisobga olish
3. Qo’llanilgan kurash choralari samaradorligini aniqlash.
4. Olingan ma’lumotlar bo’yicha tavsiyalar tayyorlash.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

## 1- Bob
## Adabiyotlar sharhi.

Tamaki tripsi o’zining tarqalish arealiga ko’ra kosmopolit hasharot bo’lib yer yuzinig yashil o’simliklar o’sadigan barcha joyida keng ko’lamda tarqalgan (Yaxontov, 1964).

U tamaki, g’o’za, piyoz karam, pomidor, kartoshka va boshqa madaniy va begona o’simliklarni kuchli darajada zararlaydi. Bransev, B.A Dobrozrakova L.T (1980) ma’lumotlariga ko’ra tamaki tripsi g’o’zani dastlabki rivojlanish davrlarida ayniqsa sezilarli zarar yetkazadi. Trips va uning lichinkalari soni yuqori bo’lganda va o’suv nuqtalarida paydo bo’ladi.

Trips (aniqrog’i tamaki tripsi) bo’yi 1 mm keladigan mayda hasharotdir, uning panjalarida po’paksimon o’simtalar bor. Tepasi och sariq rangda. Yetuk hasharotning ikki juft tiniq rangli qanotlari bor. Lichinkalari yetuk hasharotga o’xshamaydi. Qanotsiz va kichik bo’ladi (Yaxontov 1964).

Tamaki tripsi urg’ochisining uzunligi 0,8-1,0 mm, erkaginiki esa 0,7-0,75 mm keladi, voyaga yetgan tripslar tuproqning yuza qatlamida turli o’simlik qoldiqlari ostida va dala chekkalaridagi begona o’tlar asosida qishlaydi. Erta bahorda o’rtacha sutkalik harorat +8$^0$C bo’lganda ular o’yg’onib dastlab begona o’tlar bilan, keyinchalik yuzaga o’tadi (Mey, Umurzoqov, 2006).

Tamaki tripsining urg’ochisi erkagidan doimo ko’proq bo’lib barg to’qimasiga ayniqsa o’simlikning uchidagi yosh barglarda hamda o’suv nuqtasiga to’planib zarar keltiradi va shu joyda tuxum qo’yadi, zararlangan barglar bujmayadi, barg osti plyonkasimon yaltiroq bo’lib qoladi, yosh barglar to’kiladi, o’suv nuqtasi nobud bo’ladi g’o’za ko’chatlarini tabiiy ravishda chekanka qilib qo’yadi, natijada 3.6 tagacha yon shoxlar hosil bo’lib, o’simlikning o’sish va rivojlanishi 16-22 kunga kechikadi, hosildorlik esa 18-30 foizga kamayishi kuzatiladi (Hamrayev va boshq, 2003).

Tamaki tripsi bir qator sabzavot va poliz ekinlarini ham kuchli zararlaydi, ayniqsa ittamakigullilar oilasiga mansub bo’lgan ekinlarni zararlab ularga virus



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

kasalliklarini yuqtiradi va o'zi kasallik tashuvchi bo'lib xizmat qiladi (Alimuhamedov, 1989).

Yetuk trips o'ta harakatchan bo'ladi, u doimo o'simlikdan o'simlikka ko'chib yuradi, o'suv nuqtalari va yuqori yarus barglar ostiga urg'ochi trips 90-100 donagacha tuxum qo'yadi, har bir o'simlikdagi tuxum soni o'rtacha 8-20 donadan oshmaydi (Shamuratov, 1990).

Havo qanchalik quruq va issiq bulsa tripslar shuncha serharakat bo'ladi. Havoning nisbiy namligi qanchalik yuqori bo'lsa trips bir o'simlikda shuncha uzoq va ko'proq turadi Tuxum qo'yilgandan 3-4 kun o'tgach tuxumdan lichinkalar chiqa boshlaydi ular yetuk tripsga nisbatan kam harakatchan bo'lib barg tomirlari bo'ylab oziqlanadi va zarar yetkaza boshlaydi. Lichinkalar 10-15 kunda (havo haroratiga qarab)yetuk tripsga aylanadi Yoz faslida tripslarning rivojlanish davri (tuxumdan lichinka chiqishi va imagoga aylanishi) 20 kungacha boradi. Tamaki tripsi O'zbekiston sharoitida geografik kenglikka qarab 6-11 martagacha avlod beradi (Alimuhamedov va boshq, 1989).

Trips g'o'zaga asosan may iyun oylarida ya'ni g'o'za nihollarining gullash davriga qadar zarar yetkazadi, g'o'za gullagandan pishib yetilguniga qadar unda tripslar soni ko'p bo'lsada deyarli zarar yetkaza olmaydi, chunki bu davrda g'o'za barglari va o'suv nuqtasi biroz dag'allashadi, bu esa tripsni zararlashi uchun ancha noqulay vaziyatni yuzaga kelganligini ko'rsatadi (Hamrayev va boshq, 2003).

Tamaki tripsining urg'ochi zotlari dala bo'ylab doimo ko'chib yuradi, ular o'z hayoti davomida (7-14 kun) 6-15 km gacha radiusga tarqalishi mumkin, bunda ular asosan kechki va yosh g'o'za nihollarini zararlashni xush ko'radi (Xodjayev 2003).

Bransev.B.A. Dobrozrakova L.T. (1980) ma'lumotlariga ko'ra tamaki tripsi g'o'zani dastlabki rivojlanish davrlarida ayniqsa sezilarli zarar yetkazadi. Trips va uning lichinkalari yuqori barglarda va o'suv nuqtalarida paydo bo'ladi.

Trips (aniqrog'i tamaki tripsi) bo'yi 1 mm keladigan mayda hasharotdir, uning panjalarida po'paksimon o'simtalari bor. Tanasi och sariq rangda. Yetuk



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

hasharotining ikki juft tiniq rangli qanotlari bor. Lichinkalari yetuk hasharotga o'xshamaydi qanotsiz va kichik bo'ladi (Yaxontov 1964).

Tamaki tripsi urg'ochisining uzunligi 0,8-1,0 mm, erkaginiki esa 0,7-0,75 mm keladi, voyaga yetgan tripslar tuproqning yuza qatlamida turli o'simlik qoldiqlari ostida va dala chekkalaridagi begona o'tlar asosida qishlaydi. Erta bahorda o'rtacha sutkalik harorat +8$^0$C bo'lganda ular o'ygonib dastlab begona o'tlar bilan, keyinchalik madaniy o'simliklarga o'tadi (Mey, Umurzoqov, 2006).

Tamaki tripsining urg'ochisi erkagidan doimo ko'proq bo'lib barg tuqimasiga ayniqsa o'simlikning uchidagi yosh barglarda hamda o'suv nuqtasiga to'planib zarar keltiradi va shu joyda tuxum qo'yadi, zararlangan barglar bujmayadi, barg osti plyonkasimon yaltiroq bo'lib qoladi, yosh barglar to'kiladi, o'suv nuqtasi nobud bo'ladi, g'o'za ko'chatlarini tabiiy ravishda chekanka qilib qo'yadi, natijada 3.6 tagacha yon shoxlar hosil bo'lib o'simlikning o'sish va rivojlanishi 16-22 kunga kechikadi, hosildorlik esa 18-30 foizga kamayishi kuzatiladi (Hamrayev va boshqa 2003).

Tamaki tripsi bir qator sabzavot va poliz ekinlarini ham kuchli zararlaydi, ayniqsa ittamakigullilar oilasiga mansub bo'lgan ekinlarni zararlab ularga virus kasalliklarini yuqtiradi va o'zi kasallik tashuvchi bo'lib xizmat qiladi (Alimuhamedov, 1989).

Yetuk trips o'ta harakatchan bo'ladi u doimo o'simlikdan o'simlikka ko'chib yuradi o'suv nuqtalari va yuqori yarus barglar ostiga urg'ochi trips 90-100 donagacha tuxum qo'yadi, har bir o'simlikdagi tuxum soni o'rtacha 8-20 donadan oshmaydi (Shamuratov, 1990 ).

Havo qanchalik quruq va issiq bulsa tripslar shuncha serharakat bo'ladi. Havoning nisbiy namligi qanchalik yuqori bo'lsa trips bir o'simlikda shuncha uzoq va ko'proq turadi Tuxum quyilgandan 3-4 kun o'tgach tuxumdan lichinkalar chiqa boshlaydi, ular yetuk tripsga nisbatan kam harakatchan bo'lib, barg tomirlari bo'ylab oziqlanadi va zarar yetkaza boshlaydi. Lichinkalar 10-15 kunda (havo haroratiga qarab)yetuk tripsga aylanadi. Yoz faslida tripslarning rivojlanish davri (tuxumdan lichinka chiqishi va imagoga aylanishi) 20



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

kungacha boradi. Tamaki tripsi O'zbekiston sharoitida geografik kenglikka qarab 6-11 martagacha avlod beradi (Alimuhamedov va boshq, 1989).

Trips bilan kuchli zararlangan maydonlarda g'o'zaning o'sib rivojlanishi 16-20 kun kechikadi va hosildorlik hatto 50% gacha kamayib ketadi, bundan tashqari hosil kech yetilishi sababli uni sanoat sorti pasayib ketadi (Kimsanboyev, 2003).

Tripslarning 5000 dan ortiq turi ma'lum va ulardan 2200 turi o'simliklarga zarar yetkazadi. Tripslar pufakoyoqlilar oilasi, tripslar otryadiga mansub bo'lib, og'iz apparati sanchib so'ruvchi tipga mansub bo'lib, ular ichida eng ko'p tarqalgani va zararlisi tamaki tripsi bo'lib, u 100 turdan ortiq madaniy o'simliklarni zararlaydi (Migulin 1983, Zaxvatkin 1986).

Ayniqsa tamaki ko'p va kuchli zararlanib barg tarkibidagi uglevodlar kamayib ketadi, oqsil miqdori ortib ketib, xom ashyo sifati keskin kamayadi (Mey, Umurzoqov, 2006).

Zararlangan tamaki g'o'za, soya va boshqa o'simliklar barglari mo'rt bo'lib qoladi va tezda sinib ketadi (Hamrayev va boshq, 2003).

Tamaki tripsi soni avgust oyida g'o'za dalalarida eng ko'p miqdorda bo'ladi, ammo bu davrdagi baquvvat o'simliklarga uning zarari deyarli sezilmaydi. Faqat uni zarari g'o'za nihollari unib chiqqandan boshlab, gullash davrigacha seziladi xolos (Alimuhamedov, 1989).

Tripsdan zararlangan g'o'za nihollari o'suv nuqtasini nobud bo'lishi, qo'shimcha shoxlanishi rivojlanishning 16-20 kunga kechikishi hosilning kam bo'lishi, hamda juda kech yetilishi hisobiga g'o'zaning boshqa zararkunandalarini hammasidan birgalikda olgandagi zararidan ham ko'proq zarar yetkazadi (Yaxontov, 1964. Hamrayev, 2002, 2003, Kimsanboyev va boshq, 2003).

Sh. Namozov (1978) ma'lumotlariga ko'ra trips mart oyida begona o'tlardan dastlab bedapoyaga ko'chadi, g'o'za maysalari paydo bo'lishi bilan g'o'za barglariga o'tadi. Urgochi trips bir oy yashaydi va bu davrda barg to'qimasiga 100 tagacha tuxum qo'yadi Trips 4 ta lichinka yoshini kechiradi,



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

so'ngra 4 yoshdagi lichinkalari tuproqqa kirib tullaydi, ulardan yetuk imogolar vujudga keladi. Mavsum davomida tamaki tripsi 10 tagacha avlod beradi.

Erkin rivojlana boshlagan davrda tamaki tripsi g'o'zaga zarar yetkazadi. G'o'za maysalari unayotganda tripslar yosh barglarga va o'suv nuqtalariga o'rnashib oladi, zararlangan barglarning ost tomoni o'ziga xos ravishda kumushsimon yaltirab qoladi, shikastlangan kurtaklardan esa majmag'il barglar paydo bo'ladi. Uchki kurtaklar o'lgach o'simlikning rivojlanishi izdan chiqadi, ba'zan esa yosh nihollar nobud bo'ladi (Davletshina, 1989, Yaxontov 1964, Hamrayev 2003).

G'o'zada tamaki tripsini 6-7 avlodi rivojlanadi, zarar keltiradi. Umuman mavsum davomida trips 9-11, o'rtacha 10 avlod beradi, shundan g'o'za uchun tamaki tripsini may-iyun oylarida rivojlanadigan 4-5-6 avlodlari o'ta xavflidir (Davletshina, 1980).

Ko'pchilik olimlarning fikricha g'o'za dalalarida tamaki tripsini 40 dan ortiq tabiiy kushandalari mavjuddir (Davletshina, 1972,1980, Alimuhamedov, Xo'jayev, 1978, 1991, Hamroyev 2003).

Hozirgi vaqtda tamaki tripsiga qarshi zamonaviy agrotexnik, biologik va kimyoviy kurash usullari qo'llanilmoqda. Bulardan agrotexnik kurash tripslar sonini kamaytirishda muhim o'rin tutadi.

Hozirgi vaqtda ko'pchilik olimlar fosforli va kaliyli o'g'itlar eritmalari bilan g'o'za nihollariga ishlov berishni samarali usul deb hisoblanmoqda ammo bu usul trips soni haddan ziyod oshib ketganda yetarli samarani bera olmaydi.

Yuzbashyan, Hamrayev, (1982), Hamrayev (1991), Xushvaqtov (1994), Nuriddinov (1994), Mirzaliyeva (1994) larning ta'kidlashlaricha g'o'za nihollari paydo bo'lishi bilan laboratoriya sharoitida ko'paytirilgan oltinko'zni yetuk hasharotini 1:10 nisbatda qo'llash yaxshi samara beradi.

Kan (1994) fikriga ko'ra tamaki tripsiga qarshi qo'llaniladigan kurash usulini doimo takomillashtirib turish kerak, bunda uyg'unlashgan kurash usulida foydalanish eng asosiy va samarali bo'lib hisoblanadi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Ammo boshqa bir qotor olimlar (Plotnikov, 1978, Yax’yayev, 1994, Xalilov va boshq, 2004) fikricha tamaki tripsi soni bir o’simlikda 8-10 donadan oshganda faqat kimyoviy usulda ishlov berilgandagina uni zararini oldi olinadi.

Yuqoridagi adabiyotlar sharhidan ko’rinib turibdiki tamaki tripsini biologik rivojlanishi unga qarshi kurash choralari ko’pchilik tadqiqotchilar tomonidan o’rganilgan. Biz o’zimizni bitiruv ishimizda Urgut tumani dalalarida tamaki tripsiga qarshi yangi zamonaviy peritroid guruhga mansub bo’lgan insektisidlar qo’llab, uni samarasini o’rganishni o’z oldimizga maqsad qilib oldik.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

# II. BOB.

# Tamaki yetishtirish texnologiyasi

## 2.1. Dalani ko'chat o'tkazishga tayyorlash.

Maydonlarni ko'chat o'tkazishga tayyorlash texnologiyasi quyidagilardan iboratdir: maydonlar tamaki poyasi, ildizi, ildiz qoldiqlari va o'tmishdosh ekinlar qoldiqlaridan tozalanadi va kuzda 20-25 sm chuqurlikda shudgorlanadi. Bunda nishabi katta bo'lgan maydonlar ko'ndalangiga haydaladi. Tuproqqa ishlov berish erta bahordan boshlanib bunda nam qochmasligi uchun 2-3 marta borona qilinadi. Bu tadbirni diskali boronalardan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Ko'chatni o'tkazishga 8-10 kun qolganda maydonlar 12-16 sm chuqurlikda chizel qilinadi.

Chizel qilingan maydonlar og'ir mola bilan zichlantiriladi. Bu esa tuproqda to'plangan namlikning saqlanishiga imkon beradi. Kuchat uchun 30-40 sm kenglikdagi egatlar olinadi. Nishabi katta bo'lgan yerlarda egatlar sayozroq qilib olinadi. Basma va Dyubek navlari uchun 50 sm kenglikdagi egatchalar olinadi.

## 2.2. Ko'chat o'tkazish.

Tamaki navlariga qarab aprel oyining 3 chi o'n kunligidan may oyining birinchi o'n kunligigacha dalaga o'tkazish tavsiya etiladi. Tamaki ko'chatini birinchi navbatda tez yetiladigan, yo nishabi janubga yoki janubiy sharqqa qaragan yerlarda o'tqazish lozim.

Bunda ko'chatlar orasidagi masofa 2-10 sm bo'lishi lozim, ko'chatlar egatning yon tomoniga o'tqaziladi, erta bahordan nam tuproqqa yetarli bo'lganda ko'chatlar sug'orilmasdan dalaga o'tqaziladi. Ko'chatlarni ildizini uchi 3-4 sm chuqurlikda bo'lishi kerak. Ko'chat o'tqazish uchun qoziqchalar bilan chuqurchalar qilinadi.

Chuqurchaga ko'chat joylashtirilib, yonidagi tuproqlar zichlashtiriladi. Tuproq haddan tashqari quruq bo'lganida, ko'chat o'tqazilganidan so'ng bir



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

ko'chat tagiga biroz suv qo'yilib ketiladi, bu esa ko'chatni ildiz tutishini tezlashtiradi va ildiz atrofidagi tuproqni yonida zichlashtiradi.

Ko'chatlarni 60-70 sm li traktor yordamida olingan egatchalarning ikki yoniga ekish mumkin. Bunda o'simlikda kichik o'lchamli barglar hosil bo'ladi. Agar lalmi joylarda tuproq juda quruq bo'lsa, u holda sug'orib ekish tavsiya etiladi. Lalmi maydonlarda tuproq namligi yetarli bo'lganda maydonlar chizellanib, 2-marta tekis molalanib, so'ngra qator orasi 40 sm qilib, ip tortilib ko'chat uchun chuqurcha cho'p bilan qilinadi va chuqurchaga ko'chat joylashtirilib tagiga biroz suv qo'yilib tuproq zichlantiriladi.

Basma navi 1 ga maydonga 250 ming Dyubek navi esa 170-250 ming dona tup hisobida o'tqaziladi.

## 2.3. Qator oralarini ishlash.

Ko'chatlar dalaga o'tqazilgandan so'ng 5-6 kun o'tgach dalani bir sira aylanib chiqib, tutmay qolgan ko'chatlarni aniqlash va xato joylariga darhol ko'chat o'tqazish lozim. Agar bu vaqtda tuproqda nam yetishmasa, qayta o'tqazilgan ko'chatlarga suv berish kerak. Xato o'tqazilgan ko'chatlar yirik va baquvvat bo'lishi lozim.

Agar ob-havo quruq kelsa, ko'chat o'tqazilgandan so'ng sug'oriladi. Qator oralariga ishlov berishni egatlardagi nam qochmasdan, yerni yirik qismi yorilib ketmasdan boshlashi lozim .

Ko'chat o'tqazilgandan 4-3 kun o'tgach, birinchi marta qo'lda chopiq qilinadi. Bunda asosiy e'tibor ko'chat atrofini yumshatishga, o'simlikning ildiz bug'ziga qaratish kerak. Qator oralariga ishlashda, pushtadagi yumshoq tuproq ko'chat yoniga tushiriladi va bir yo'la egat ichi ham yuza chopiladi.

Egat oralig'idagi va pushtidagi begona o'tlar ham bir yo'la chopib ketiladi.

## 2.4. Sug'orish tizimi.

Tamaki o'simligi, ko'p sug'orilganda quyidagi salbiy holatlar kelib chiqadi: o'simlik haddan ziyod o'sib ketadi, har bir qavatdagi barglarning



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

o'lchami kattalashib ketadi, barglarni pishib yetilishi cho'zilib ketadi va aksariyat hollarda pishmay qoladi, barglarni qurishi qiyinlashadi.

Barglarning zararkunandalar bilan zararlanishi kuchayadi, barglarni un-shudring bilan zararlanish imkoniyati kuchayadi. Xom ashyoning rangi to'q yashil rangda bo'lib, uni sifatini pasaytiradi, bargni materialligi pasayadi.

Tamaki ko'chatini o'tqazishda beriladigan suv o'tkazuvchanligini hisobga olib, egatlardan suvni jildiratib qo'yish lozim, shunda suv tuproqni yuvib ketmaydi.

Izmir ko'chatini dalaga o'tqazish uchun egatlardan suv qo'yish zaruriyati tug'ilganda egatlarni ham namlantirish zarur.

Ko'chat o'tqazilgandan 15-20 kun o'tgach, u to'liq ildiz oladi va o'simlikning barglari jadal sur'atda shakllana boshlaydi. Bu davrda tuproq va havo namligiga qarab tamakini iloji bo'lsa maydonlarni ikkinchi marta sug'orish mumkin. Agar bu davrda tuproq namligi yetarli bo'lsa, ikkinchi sug'orish o'tkazilmasa ham bo'ladi.

Tamaki barglarini pishish va yig'ish davrida sug'orish unda bachki novdalarni hosil bo'lishiga olib keladi, bargni materialligi pasayadi, shu bilan birga bargni pishib yetilishini uzaytirib yuboradi.

## 2.5. O'g'itlash.

Tamakini o'g'itlash qo'yidagicha olib boriladi. Basma tamakisida azotli o'g'it 1-chi oziqlantirishda 25 kg/ga me'yorida ko'chat o'tqazilgandan 10-15 kun o'tqazilib, 2-chi oziqlantirishda 25 kg/ga me'yorida ko'chat o'tqazilgandan 30-35 kun o'tkazilib olib boriladi. 40 kg/ga $R_2O_5$ o'g'it 100 % kuzgi yoki bahorgi shudgor bilan beriladi.

Dyubek tamakisida esa xuddi Basma tamakisidagi kabi muddatlarda va usullarda o'g'itlar beriladi, ammo bunda N-100 kg/ga va $K_2O$ 50 kg/ga me'yorida qo'llaniladi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

## 2.6. Barglarni yig'ish va quritish.

Barglarni pishirib uzib olish va barg qavatlari bo'yicha faqat pishgan barglarni tanlash ulardan yuqori, sifatli xom-ashyo olishni ta'minlaydi.

Barglarni uchidan boshlab sarg'ayishi, barg yuzasi to'lqinsimon bo'lib, uchlari va yonlari biroz egilishi, ular qalinlashib va mo'rt bo'lib poyadan oson uzib olinishi barglarni pishganligini bildiradi. Barglarni uzib olishda ushbu belgilarni hammasi hisobga olinadi.

Agar barglar pishmagan bo'lsa ularni uzish maqsadga muvofiq emas. Pishmagan barglar yashil rangda bo'ladi va ular quritilgandan keyin pastki navga mansub bo'ladi.

Barglar har bir o'simlikda 2-3 dona, ayrim hollarda 4-5 donagacha pishgan bo'ladi.

O'sishi sust bo'lgan o'simliklardan pishmagan barglar uzilmay, kelasi uzuvga qo'yiladi.

Har bir o'simlikdan pishgan barglar ehtiyotlik bilan savatchalarga joylashtiriladi va daladan olib chiqib kelguncha ustiga ho'llangan latta yopib qo'yiladi.

Ezilgan va shikastlangan barglar quritish jarayonida qorayadi va sifati pasayadi.

Barglar odatda ertalab yoki kechki paytlarda uziladi. Shudring bilan bargni uzish yaramaydi. Pishib o'tib ketgan barglar ham xom-ashyo sifatini buzadi. Shuning uchun ham barglarni pishib o'tib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Yig'ib olib kelingan barglar yerga tiziladi va quritiladi. Tizish ipini uzunligi 150 sm bo'lishi kerak. Bu ipni 120 sm ga barg tiziladi va har uchidan 15 sm dan bog'lash uchun ip qoldiriladi.

Ipga tuzilgan barglar soyada 12-24 soat davomida quritiladi. Quritilgan barglar sariq rangga kiradi. So'litish albatta soya joyda o'tkazilishi lozim.

Iplarni quritish bug'inlarida yerga tegmasligi va yerdan bir xil balandlikka bo'lishligiga ahamiyat beriladi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Quritish bo'g'imlari ochiq joyda joylashtiriladi va bu jarayon ob-havo sharoitiga  qarab 7-13 kun davom etadi.

Quritishda barg o'zagini butunlay qurishiga e'tibor beriladi. Agar barg o'zagi butunlay yaxshi qurimagan bo'lsa, ular toy ichida mog'orlaydi. Mahsulot sifatini pasaytiradi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

# III-BOB.

## Tajriba o’tkazish sharoiti va uslublari.

### 3.1. Iqlimi.

Tajribamiz Samarqand viloyatining Urgut tumanining tog’ va tog’ oldi hududlarida joylashgan Navoiy MMTP hududida o’tkazildi,o’suv davrining 10 $^{o}$S dan yuqori haroratli kunlari 200-220 kun. O’rtacha yillik harorat 12-14 $^{o}$S ni tashkil etadi. Eng issiq kunda havo harorati +38+40 $^{o}$S, eng sovuq kunlari esa -18-20 $^{o}$S ni tashkil etadi. Odatda mart oyining oxirlarida bahorgi sovuqlar kuzatiladi.

Bunday mintaqalarda tamaki ko’chatxonalari polietilen plyonkalar bilan yopilishi lozim. Kuzgi dastlabki sovuq oktyabr oyining 1 chi dekadasida tushadi. Aprel oyining ikkinchi o’n kunligida o’rtacha havo harorati +10 dan oshadi va ko’chatxonalarni dalaga o’tkazish imkoniyati tug’iladi. Tamakini izmir navini barglarini to’liq pishib yetilishi uchun o’rtacha sutkalik harorat +20 S dan kam bo’lmasligi kerak, bunday harorat bilan tamakichilik hududlarida to’liq ta’minlangan.

Tamakichilik hududlarida tamaki o’suv davrida havo namligi 45-50% atrofida bo’lishi kuzatiladi, tamaki o’simligining o’sishiga va rivojlanishiga barglarini qurishiga quruq shamollar salbiy ta’sir qiladi. Bu esa tamaki barglarini polietilen plyonka ostida quritishni taqozo etadi.

Yillik yog’ingarchilik miqdori o’rtacha 350-450 mm ni tashkil etadi. Uning 60% kuzgi-qishgi davrda 30-35% i bahoorda va 10-15 % esa yoz davrlariga to’g’ri keladi. Bahorgi yog’ingarchiliklarni asosiy qismi aprel oyiga to’g’ri keladi va bu holat ko’chatlarni tabiiy namlikdan foydalanib sug’ormasdan dalaga o’tqazishni imkoniyatini beradi. Yoz oylarida havo namligi 40% va undan past bo’ladi. Yoz oxirida havo namligi bir oz ko’tarilib, 50-70% ni tashkil etadi. Havo harorati va namligi ancha o’zgarib tursada, yozga kelib ancha barqarorlashadi. (+30+32 $^{o}$S).



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Shunday qilib, tabiiy ob-havo sharoiti tamaki o'simligini o'suv rivojlanishi uchun qulay bo'lsada, shu bilan birgalikda o'simlik bitlari, jumladan tamaki bitini kam rivojlanishini hamda ommaviy ko'payishi uchun ham o'ta qulay bo'lib hisoblanadi.

**Tamaki o'suv davrida meteorologik ko'rsatkichlarning o'zgarishi ("Samarqand" gidrometeorologiya markazining Urgut tayanch punkti ma'lumoti).**

1-jadval

| Oylar | Dekadalar | Havo harorati, $^0S$ | | Havoning nisbiy namligi, % | | Yog'ingarchilik, mm |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | o'rtacha | Eng yuqori | o'rtacha | Eng kam | |
| aprel | I | 9,5 | 22,6 | 70 | 30 | 37,6 |
| | II | 15.4 | 26.6 | 71 | 34 | 42.9 |
| | III | 15.1 | 29.6 | 75 | 42 | 31.3 |
| May | I | 17.8 | 29.3 | 60 | 33 | 40.3 |
| | II | 20.3 | 31.3 | 60 | 27 | 55.3 |
| | III | 21.1 | 31.7 | 55 | 26 | 28.1 |
| Iyun | I | 23.1 | 35.3 | 39 | 16 | 7.8 |
| | II | 23.6 | 35.0 | 44 | 13 | 3.3 |
| | III | 23.9 | 35.8 | 41 | 19 | 1.8 |
| Iyul | I | 25.8 | 40.0 | 31 | 14 | 2.3 |
| | II | 28.9 | 42.0 | 41 | 15 | 0.3 |
| | III | 25.6 | 39.7 | 35 | 13 | - |
| Avgust | I | 26.4 | 38.8 | 38 | 15 | - |
| | II | 25.7 | 38.9 | 43 | 17 | - |
| | III | 25.5 | 38.9 | 38 | 15 | - |
| Sentyabr | I | 21.4 | 34.3 | 43 | 21 | - |
| | II | 17.0 | 30.1 | 47 | 21 | |
| | III | 19.7 | 34.1 | 46 | 18 | - |
| oktyabr | I | 11.9 | 27.6 | 62 | 20 | 10.1 |
| | II | 14.2 | 30.4 | 63 | 19 | 34.1 |
| | III | 8.4 | 24.6 | 81 | 31 | 38.2 |



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

## 3.2. Tuproqlari.

Dala tajribalari o’tkazilgan maydon tuproqlari Samarqand viloyati, Urgut tumani uchun xos bo’lib, tipik bo’z tuproqlar sifatida ta’riflanadi. Yer osti suvlarining joylashish chuqurligi 7-8 m, tuprog’i bo’sh bo’lib, yaxshi suv o’tkazuvchanlik xususiyatiga ega.

2-jadval

| Tuproq qatlami, sm | Chirindi miqdori,% | Yalpi miqdori, % | | | Harakatchan miqdori mg/kg | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | N | R | K | N | $R_2O_5$ | $K_2O$ |
| 0-25 | 1.29 | 0.194 | 0.178 | 1.13 | 12.11 | 19.5 | 13.9 |
| 25-35 | 1.01 | 0.111 | 0.163 | 1.41 | 7.31 | 15.9 | 17.3 |
| 36-65 | 0.73 | 0.087 | 0.154 | 1.60 | 4.03 | 14.2 | 19.2 |

## 3.3 Tajriba obyekti va uslubi

Dala tajribalari Samarqand viloyati Urgut tumanidagi tamakichilikka iqtisoslashgan Navoiy nomli MMTP hududidagi O’zBAT British Amerikan Tabokko Urgut tamaki o’stirish tajriba maydonida olib borildi.

Tajribalarda tadqiqot obyekti sifatida tamakining o’ta xushbuy xom ashyo beruvchi sharq guruhiga mansub Izmir navi olindi.

Izmir navi 1998 – yildan boshlab Samarqand viloyatining tamakichilik hududlarida ekish uchun tavsiya etilgan (Reyestr, 1998).

Tajribada tamakidagi tamaki tripsini tur tarkibi, zarari va unga qarshi turli insektisidlar qo’llash buyicha o’tkazildi va qo’yidagi sxemada olib borildi.

1. Nazorat bu variantda hyech qanday kurash ishlari o’tkazilmadi.
2. Siraks – 0,2 l/ga.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

3. Danadim – 1,1 l/ga
4. Konfidor – 0,2 l/ga.

Tajribalardan oligan barcha raqamli ma'lumotlar. A.K.Gar (1967) va B.A. Dospexov (1985) hamda. G.F. Lakin (1980) uslublari bo'yicha tahlil qilindi.

Tajribalarimizning asosiy obyektlari tamaki tripsi va tajriba tizimiga muvofiq keltirilgan insektisidlar xizmat qildi. Ushbu zararkunanda turlar biologiyasi va zarari asosiy natijalar tahlili qismida bayon etiladi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

# IV BOB

## Tadqiqot natijalari

### 4.1 Tamakida tamaki tripsini rivojlanish dinamikasi

Kuzatishlarining ko'rsatishicha tamaki ko'chatxonalaridayoq trips ko'chatlarda zarar yetkaza boshladi chunki ko'chatxona plyonka bilan yopilgan himoyalangan maydon bo'lib, o'rtacha sutkalik harorat +10 +12$^0$ C dan kam bo'lmagan sharoit mavjud edi. Ko'chatlarni dalaga o'tkazganimizdan so'ng darhol ko'chatlarga begona o'tlardan trips o'ta boshladi. Tamaki tripsini rivojlanish fenologiyasi va avlod berish dinamikasi jadvalda keltirilgan.






PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com




## *Тамаки баргларини тамаки трипси билан зарарланиш чегараси*



| Зарарланиш Даражаси | Тавсифи |
|---|---|
| Йук X | 0 |
| Кам V | 1-2 донагача |
| Уртача VV | 3-4 донагача |
| Куп VVV | 5 донадан зиёд |

**Тамаки трипси баргларни зарарланганда**

**хосил 30% гача, барг сифати эса 50% гача пасаяди.**



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Urgut tumani sharoitida kuzatuvlarga qaraganda tamaki tripsi 7-8 avlod beradi, (yilning kelishiga qarab) va 3-4-5-6 avlodlari tamakiga jiddiy zarar yetkazadi. 1 – va 2 – avlodlari begona o'tlarda, qisman esa ko'chatxonalarda rivojlanadi.

Shuning uchun ham tripsninig haqiqiy zarari may, iyun va iyul oylarida kuzatildi. Avgus oyida ob-havoning nisbatan salqin bo'lishi tripslar sonini ancha kamayishiga olib keldi.

Tripslarning rivojlanish dinamikasi tajribaning nazorat variantidagi maxsus 10 tup o'simlikda mayin dokadan xaltachalar kiygizilib (o'simlikka tegmaydigan qilib o'rnatilib) aniqlandi (O'zO'HQITI uslubi, 1994).

Fenalogik dinamik kuzatish natijalariga ko'ra Urgut tumani tog' oldi sharoitida tamakida tripsning 3 – 4 – 5 – 6 avlodlari jiddiy zarar yetkazadi va u 7 – avlod berib rivojlanadi deb xulosa qilish mumkin.

*Тамакини зарарланишини аниқлаш.*





**Зарарланишни аниклаш**



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

# Трипс билан зарарланган майдон харита.






*Трипс билан куп зарарланган майдон.*

| Агрофирма | Трипс га | | |
| --- | --- | --- | --- |
| O. OZOQOV | 280 | 6.4 | 286.4 |
| TAROQLI | 13.5 | 211.7 | 225.2 |
| A. NAVOIY | 393.6 | | 393.6 |
| ITTIFOQ | 74.3 | 13.1 | 87.4 |
| K. RAHIMOV | 381.5 | 70.3 | 451.8 |
| M. ULUG'BEK | 764.45 | 19.5 | 783.95 |
| Grand Total | 1907.4 | 321 | 2228.35 |



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

# Трипс билан зарарланган агрофирмалар .

| Агроферма | Йук Х | Кам Т | Уртача ТТ | Куп ТТТ | Grand Total |
|---|---|---|---|---|---|
| A. NAVOIY | 6.5 | 393.6 | | | 400.1 |
| AKRAMOBOD | 169.9 | 6.4 | | | 176.3 |
| BAHRIN | 178.15 | 67.1 | | | 245.25 |
| DEHQONOBOD | 250.65 | 368.65 | 0.5 | | 619.8 |
| G'IJDUVON | 180.69 | 67.88 | 14.5 | | 263.07 |
| ITTIFOQ | | 74.3 | 13.1 | | 87.4 |
| JARTEPA | 430.15 | 97.3 | | | 527.45 |
| JUROBTEPA | 441.3 | 43.5 | 6.5 | | 491.3 |
| K. RAHIMOV | 14.45 | 381.5 | 70.3 | | 466.25 |
| M. ULUG'BEK | 47.7 | 764.45 | 19.5 | | 831.65 |
| MEHNATOBOD | 140.1 | 0.9 | | | 141 |
| MUMINOBOD | 26.5 | 48.9 | 9.5 | | 84.9 |
| NAVRO'Z | 26 | 2 | 1 | | 29 |
| O. OZOQOV | 24.2 | 280 | 6.4 | | 310.6 |
| OQQO'RG'ON | 82.8 | 80.2 | 1.5 | | 164.5 |
| OXUNBOBOEV | 252.85 | | | | 252.85 |
| QAYROQLI | 353.4 | 17.95 | | | 371.35 |
| SAMARQAND | 152.5 | | | | 152.5 |
| TAROQLI | 4.8 | 13.5 | 211.7 | | 230 |
| VATKAN | 268.7 | 4 | 58.95 | 9.05 | 340.7 |
| X. MUMINOV | 15.85 | 8.9 | 0.5 | | 25.25 |
| YANGIARIQ | 256.43 | 28.87 | 44.7 | | 330 |
| Z.M. BOBUR | 232.65 | 7 | | | 239.65 |
| Grand Total | 3556.27 | 2756.9 | 458.65 | 9.05 | 6780.87 |

| Агрофирма | | трипс |
|---|---|---|
| OXUNBOBOEV | 0% | |
| SAMARQAND | 0% | |
| MEHNATOBOD | 1% | |
| Z.M. BOBUR | 3% | |
| AKRAMOBOD | 4% | |
| QAYROQLI | 5% | |
| JUROBTEPA | 10% | |
| NAVRO'Z | 10% | |
| JARTEPA | 18% | |
| ITTIFOQ | 20% | |
| VATKAN | 21% | |
| YANGIARIQ | 22% | |
| BAHRIN | 27% | |
| G'IJDUVON | 31% | |
| X. MUMINOV | 37% | |
| OQQO'RG'ON | 50% | |
| DEHQONOBOD | 60% | |
| MUMINOBOD | 69% | |
| O. OZOQOV | 92% | |
| M. ULUG'BEK | 94% | |
| K. RAHIMOV | 97% | |
| TAROQLI | 98% | |
| A. NAVOIY | 98% | |

# Трипс













PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com



### 4.2 Tamaki tripsiga qarshi insektisidlar qo'llashning biologik (texnik) samaradorligi

A.Filipchuk ma'lumotlariga qaraganda Krasnador o'lkasida har tup o'simlikda 1,2 – 1,5 dona tamaki tripsi yoki 2,0 – 2,2 dona uning lichinkasi bo'lganda unga qarshi kurashmasa ham bo'ladi. Bu Krasnodor o'lkasi sug'oriladigan tamakichilik zonasi uchun tamaki tripsini iqtisodiy zarar keltirish mezoni bo'lib hisoblanadi. Agar tamaki tripsi soni ushbu ko'rsatkichdan oshsa unga qarshi kurash tadbirlarini o'tkazish muhimdir.

Ammo keyingi yillarda Urgut tumanining tog' va tog' oldi shartli sug'oriladigan va lalmi mintaqasida tamakini Izmir navi yetishtirilayotganini inobatga olsak, ayniqsa trips quruq va issiq sharoitda avj olib ko'payishi hisobiga ular ko'plab urchiydi va hosilga jiddiy zarar yetkazadi. Bundan tashqari O'zbekiston sharoiti uchun tamaki tripsini iqtisodiy zarar yetkazish mezoni aniqlanmagandir. Shuning uchun ham tripslar sonini keskin oshib ketishi ularga qarshi kimyoviy kurash vostalarini qo'llashga asos bo'ldi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com



**Tamakini Izmir navini yetishtirishda tripsga qarshi insektisidlar qo'llashni biologik (texnik ) samaradorligi**

3-jadval

| № | Variantlar | Tripslar soni 1- tup o'simlikda | Ishlov berilgandan so'ng qolgan tripslar soni, kunlar bo'yicha | | | | Biologik samaradorlik kunlar bo'yicha | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 3 | 7 | 10 | 15 | 3 | 7 | 10 | 15 |
| 1 | Nazorat | 9.8 | 13.1 | 16.6 | 19.5 | 21.0 | - | - | - | - |
| 2 | Siraks 0.2 l/ga | 11.0 | 3.3 | 3.8 | 4.3 | 5.0 | 69.5 | 65.4 | 60.6 | 54.5 |
| 3 | Danadim 1,0 l/ga | 10.6 | 2.5 | 3.2 | 3.5 | 4.3 | 76.8 | 70.2 | 67.4 | 59.6 |
| 4 | Konfidor 0.2 l/ga | 11.4 | 1.4 | 1.5 | 2.3 | 2.6 | 87.8 | 83.4 | 79.5 | 77.2 |



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com



Dalaga tajriba sxemasi asosida insektisidlarni 2014 – yilning  26 – may kuni purkadik. Purkash ishlari qo’l purkagichi yordamida amalga oshirildi.

